

INGLIZ MAQOLLARIDA AYOL TIMSOLINING ROLI

MEHRANGIZ MAXSUDOVA

*TDSHU Tarjima nazariyasi va amaliyoti pashtu
tili va ingliz tili 1-kurs talabasi, Toshkent, O'zbekiston*
Tel: +998990325781, E-mail: maxsudovmehrangiz@gmail.com
Ilmiy rahbar: PHD, dots v.b, **M. Taylonova**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayol timsolining maqollardagi tarjimasi ko'rib chiqiladi. Unda asosiy e'tibor maqollarning xususiyatlarini tarjimada saqlash masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Hozirgi globallashuv jarayonida xalqimizning ma'naviy, siyosiy va diniy savodxonligini yuksaltirish zamonamizning eng muhim talabi bo'lib, bu borada ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada ingliz va o'zbek nasrida ayollar obrazining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Har bir xalq milliy qarashlaridan kelib chiqqan holda o'z adabiyotida ayol obrazini turlicha tasvirlaydi. O'zbek nasrida ayol timsoli ona, rafika, uy bekasi sifatida tasvirlansa, ingliz adabiyotida esa bularga qo'shimcha sifatida ayol ishbilarmon tadbirkor, ishchi xodim kabi vazifalarni ham bajaradi. Ingliz adabiyotida ham ayol obrazi davrlar davomida tadrijiy o'zgarib borgan.

Kalit so'zlar: yaxshi ayol, patriarxal, muvozanat, tarixiy munosabat, dunyoqarash.

Аннотация. В данной статье рассматривается перевод образа женщины в пословицах. Основное внимание уделяется сохранению особенностей пословиц при их переводе. В статье рассматриваются образы женщин в английской и узбекской прозе. Образ женщины в литературе у каждого народа разный, в зависимости от его взглядов. Мы знаем, что в узбекской прозе женщина изображается как мать, жена, домохозяйка, а в англоязычной литературе, помимо этого, он включает в себя изображение женщины-предпринимателя, женщины-работницы. В английской литературе образ женщины тоже со временем менялся.

Ключевые слова: хорошая женщина, патриархальный, баланс, историческое отношение, мировоззрение.

Annotation. This article examines the translation of the image of women in proverbs. The main focus is on preserving the characteristics of proverbs in translation. In the current process of globalization, raising the spiritual, political and religious literacy of our people remains the greatest demand of our time. In this regard, the issue of women is of particular importance. The article deals with the image of women in English and Uzbek prose. It is known that in Uzbek prose, the image of a woman is depicted as a mother, wife, housewife, while in English literature, in addition to these,

it includes the role of a woman-entrepreneur, a woman-worker. In English literature, the image of women has changed over time.

Keywords: good woman, patriarchal, balance, historical attitude, worldview.

Ingliz xalq og‘zaki ijodi – uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga o‘tib kelgan boy ma’naviy merosdir. Maqollar ushbu merosning muhim qismi bo‘lib, ular jamiyatning qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Ingliz maqollarida ayol obrazining berilishi ham alohida e’tibor talab qiladigan mavzu bo‘lib, ular orqali ayollarga bo‘lgan tarixiy munosabat, jamiyatdagi o‘rni, ularga yuklangan vazifalar hamda stereotiplar namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada inglizcha maqollarda ayol obrazining shakllanishi, mazmuni va ularning ma’naviy-ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ma’lumki, har qanday adabiyot o‘z g‘oya va personajlari bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, barcha zamonlarda ayol siymosiga, ayol xarakterini ochib berishga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan. Bu esa ayolning jamiyat va insoniyat hayotidagi o‘rni, ayol timsolining dolzarbligidan dalolat berad[1,28]. Ayol obrazi hozirda turli fanlar va san’atning barcha turlarida (kino, teatr, haykaltaroshlik, rassomchilik, raqs, badiiy adabiyot, san’atshunoslik, psixologiya) muhim muammo sifatida o‘rganilmoqda. Ammo bu boradagi ishlar bugungi kun ayolining ichki dunyosini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, onalik, bekalik kabi zalvorli majburiyatini, ularning go‘zallik, aql va donishmandlik timsoli sifatidagi qirralarini yetarli darajada ochib berishda ko‘zlangan maqsadga erishilmayapti. Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma’daniy hamda umumbashariy qadriyatlarini aks etishi orqali o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo‘lib kelmoqda. O‘zbek va ingliz tilidagi maqollarning ko‘pchiligini ushbu tillarda aniq ekvivalenti mavjud emas lekin ma’no jihatdan moslashtiriladi. Maqollardagi ayol obraziga keladigan bo‘lsak, bilamizki, o‘zbek xalqida ayol nozik hilqat sifatida tasvirlanadi va juda qadrlanadi. **Yuqoridagi** fikr ushbu, "Ayolning sarishtasi-ro‘zg‘orning farishtasi" maqoli misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda agar ayol ozoda va har narsaga e’tiborli bo‘lsa, rozg‘orda ham hech qanday kamchiliklar bo‘lmaydi va oila tinch bo‘ladi. Lekin quyidagi maqolda ayol haqida boshqa fikrlar ham yuritishimiz mumkin: yoki "Elakka borgan ayolning ellik og‘iz gapi bor", "Uch ayol -to‘rt g‘iybat" . Ushbu maqollarda o‘zbek ayollarining gapga ustaligi va bazida ko‘p gapirishi haqida aytib o‘tilgan. Misol uchun ko‘chada biror tanish ayollar bir birini ko‘rib qolishsa bu holatda ular albatta uzoq salomlashishadi va kamida yarim soat gaplashib qolishadi va bu o‘zbek ayollarining azaliy odatlaridir. Lekin inglizlarda unday emas, ular shunchaki salomlashishadi va yo‘lida davom etishadi. "Bir ayolning makri qirq tuyaga yukdir" maqoli ham bejizga aytilmagan. Ingliz xalq maqollarida ayol obrazi ko‘pincha jamiyatning patriarxal tuzumi ta’siri ostida shakllangan. O‘rta asr

Yevropasida ayollarga nisbatan ma'lum cheklovlar mavjud bo'lgan, ular asosan uy-ro'zg'or yumushlari, farzand tarbiyasi va oilaviy tinchlikni ta'minlovchi sifatida tasavvur etilgan. Natijada, maqollarda ham ayollar odatda oilani saqlovchi, sabr-qanoatli, mehribon, lekin ba'zan injiq yoki o'zgaruvchan xarakterga ega sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, ayrim maqollar ayollarning donoligi, fidoyiligi va oiladagi muhim rolini yuksak e'tirof etadi. Demak, inglizcha maqollardagi ayol obrazlari bir yoqlama emas, balki murakkab, ko'p qirrali va qarama-qarshiliklarga boy.

"A good wife makes a good **husband**." Tarjimasi: "Yaxshi ayol yaxshi turmush o'rtoq yaratadi". Ma'nosi: Yaxshi xotin yaxshi erni tarbiyalaydi yoki shakllantiradi. Bu maqol ayolning oilaviy va ijtimoiy muvozanatda tutgan o'rnini yuksak baholaydi. U oiladagi mehr-oqibat, tartib-intizom va barqarorlikning muhim qismi ayol ekanini ta'kidlaydi [2,14].

"A mother understands what a child does not say". Tarjimasi: "Onalar bolalari gapirmasalar ham tushunadilar" [3,28]. Ma'nosi: Ona bola aytmagan narsani ham tushunadi sababi onaning yuragi bolasining yuragi bilan bog'langan bo'ladi va u bolasi nimani his qilayotganini ham sezadi. Bu maqol onalarning nozik hissiyotini, mehribonligini va farzand ruhiyatini chuqur his etishi qobiliyatini ko'rsatadi. Ayolning ona sifatidagi ulug' fazilatlari madh etiladi.

"Behind every great man there is a great woman". Tarjimasi: "Har qanday kuchli erkakning ortida kuchli ayol turadi". Ma'nosi: Har bir buyuk erkakning orqasida kuchli ayol turadi. Ushbu maqol ayollarning erkaklar hayotida qo'llab quvvatlovchi va kuch beruvchi muhim inson ekanligini bildiradi. Ayol oilaviy barqarorlikning asosiy ustuni sifatida talqin etiladi [4,58].

"Hell hath no fury like a woman scorned". Tarjimasi: "G'azablangan ayolning jahldan qo'rqinchliroq narsa yo'q" [5,19]. Ma'nosi: Bu maqol orqali ayollar hissiyotining kuchliligi va o'zgacha o'tkirligi haqida. Hayotda shunday kuchli ayollar bor bu ayollar qilgan ishlarni ba'zi erkaklar ham qila olmaydi. Shuning uchul ayollarning 40 ta joni bor, deb aytishsa kerak.

"A womens work is never done". Tarjimasi: "Ayollarning ish hech qachon tugamaydi" [6,27]. Ma'nosi: Ayollarning ishi hech qachon tugamaydi. Bu maqol ayollarning doimiy mehnatini, ayniqsa uy-ro'zg'or yumushlarining yakuni yo'qligini ifodalaydi. Bu maqol orqali jamiyatda ayolni va uning mehnati qadrlanishi lozimligi nazarda tutilgan. Bu maqol aynan bizning mehnatkash ayollarimiz uchun aytilgan desam adashmaayman.

"A silent wife makes a happy life". Tarjimasi: "Tinch ayol yaxshi hayotni yaratadi". Ma'nosi: Og'ir va vazmin ayol baxtli hayot yaratadi. Sababi ayollar oilaning mustahkamlanishida asosiy o'rin egallaydi hamda ular tabiatan juda ham chidamli va sabrli qilib yaratilgan. Chunki ayollar oilasidagi muvozanatni saqlab turuvchi taroziga

qiyoslanadi. Bejizga emas, ayollar hamma narsaga chidashadi oilasi uchun va farzandlari uchun hattoki jonini berishga tayyor ayollar bor[7,29].

Ingliz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, ingliz xalqining xarakteri haqida so'z yuritmay ilojimiz yo'q. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari mag'rur va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham ko'rinadi: [8,11]. Inglizcha: Better be the head of a dog than the tail of a lion. O'zbekcha tarjimasi: Arslonning dumi bo'lgandan ko'ra itning boshi bo'lgan afzal. O'zbekcha varianti: Arslonning o'ligi — sichqonning tirigi. Inglizcha: [9,7]. Better go to heaven in rags than to hell in embroidery. O'zbekcha tarjimasi: Jahannamga yaxshi kiyim kiyib borgandan, jannatga juldur kiyib borgan afzal.

Ayol - borliq ko'zgusi. Uning go'zalligi olamni charog'on etadi, chunki uning niyati pok, o'zi pok. Shu bois, uni avaylab, asragan yurtning kelajagini porloq deb naql qilishadi. Shu ma'noda, buni O'zbekistonimizga va uning biri-biridan latofatli, oqila o'zbek ayollariga nisbat qilsak, xato bo'lmaydi. Bu bejiz emas. Zero, onalarning, ayollarimizning baxti-oilalarimiz, xalqimiz, ona Vatanimizning baxti, saodatidir. Darhaqiqat, mamlakatimiz taraqqiyotini, jamiyatimiz rivojini ayollarsiz, ularning faol ishtirokisiz tasavvur eta olmaymiz. Shu bois yurtimizda ayol huquqi, erkinligi, tengligi eng oliy, muqaddas qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda, ayolga izzat-hurmat, e'zoz-ehtirom ko'rsatish - millatga ehtirom ko'rsatishning bosh omiliga aylandi.

Prezident xotin-qizlarga murojaat qilar ekan, mehr-oqibat, olijanoblik, muhabbat va sadoqat kabi yuksak insoniy qadriyatlarni kamol toptirishda, oila qo'rg'onini mustahkamlashda ularning xizmatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmashligini aytdi. Muqaddas dinimiz ham muhtarama onalarimiz, dilbar opasingillarimiz, munis qizlarimizga hamisha yaxshilik qilishga, ularning izzat-hurmatini joyiga qo'yishga buyuradi— deb qo'shimcha qildilar. Ayollarning davlat boshqaruvi va parlament faoliyatidagi ishtiroki kuchaygani jamiyatimiz rivojiga ham ijobiy ta'sir etayotganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Eng muhimi, aql-zakovatli, bilimli va iste'dodli xotin-qizlarimiz davlat va jamiyatning barcha sohalarida namuna bo'lishmoqda, — dedi davlat rahbari[10,47].

Xulosa qilib aytganda, ayolning insoniy qadrini joy-joyiga qo'yish, uni ulug'lash, so'zsiz aql-idrok tantana qilgan, inson o'zligini va jamiyatning inson oldidagi javobgarligini chuqur tushungan yurtdagina amalga oshirilishi mumkin. Ayol qadri ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topmas ekan, ayol jamiyatning erkinlik, osoyishtalik mezoniga aylanmas ekan, bu jamiyatda barqarorlik, bunyodkorlik hukmronlik qilishi mumkin emas. Islom Karimov butun umri davomida ayollarga nisbatan munosabatda ayni shu tamoyilga tayanib yashagan. Shu o'rinda bir hikmatli so'zni keltirib o'tish joiz, Erkakning mangulik o'lchovi mingta. Davlat, shuhrat, unvon, mansab... Ayolning o'lchovi esa bitta, u ham bo'lsa farzandlaridir. Farzandni dunyoga

keltirguncha ayol jon bilan talashib, ne bir aziyat bilan uni bag‘riga bosadi. Balki shu bois ham bolasi uchun o‘zidan kechishga ham tayyor. Shu bois, ayol allasini o‘ziga xos millat madhiyasi deyishga haqlimiz. Chunki bunda Vatanni o‘ziga jam qilgan onaning orzusi, uning javobgarligi, uning mehri jo‘sh urib turadi.

Mushohadalarimizni Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari bilan yakunlamoqni o‘rinli deb bildik: “Onani, ayolni rozi qilsak, xalq bizdan rozi bo‘ladi...”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. Theoretical & Applied Scienc21.Tashkent.
2. External factors of associations“ individuality.Scientific journal of the Fergana State University.
3. USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY.CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758),2(11),
4. Hoshimova, N. A. Ingliz va o‘zbek tillarining funktsional uslublari.(2020)
5. Молодой ученый journal . Tashkent,2023.
6. Mamajanova, M. “Ingliz maqollariing ahamiyati”Toshkent, (2021).
7. Khashimova N. “O‘rta asr Yevropada ayollar” Toshkent,2013.
8. Toirova, N. I. “English literature” ,Tashkent (2019).
9. Xoshimova, N.”Science Journal of Andijan”, Andijon 2021.
- 10.References 1. Ahrorovna, N. N., & Marjona, M. (2021). Online — conferences platform, pp. 62–68, available at:
<http://papers.onlineconferences.com/index.php/titfl/article/view/589> 2. Baxtin M., Voprosi literature i estetiki (Issue of Literature and Aesthetics), Moscow, EshmatovaY.B. Istiqlol davri o‘zbek madaniyati”, Toshknet 2018.

